



**“OLYIY TA’LIM MAZMUNIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIK TA'LIM FAKULTETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“OLIV TA'LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

2023 yil 27 may

BUXORO-2023

UO‘K 37.01

KBK 65ya7 88ya7

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandi birinchi xatboshisida belgilangan “2023-yilga mo‘ljallan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar” asosida 2021 yil 27 may kuni Buxoro davlat universitetida “Oliy ta‘lim mazmuniga zamonaviy yondashuvlar” mavzusida o‘tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta‘lim sifatini oshirish, pedagogik ta‘lim sohasida ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta‘lim infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi.

Taqrizchilar:

M.H.Maxmudov, pedagogika fanlari doktori, professor

B.B.Ma‘murov, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay‘ati:

Sh.Sh.Olimov, B.R.Adizov, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasi dotsenti B.T.Jo‘rayev

va texnik model tayyorlaydi. Amaliyot kurs o'rtasida va oxirida ikki oy muddatdan bajariladi. Amaliyot natijalariga ko'ra imtihonlarga ruhsat beriladi. Firma bo'sh ish o'rinlariga o'z zavodlarida amaliyot o'tagan yuqori natija ko'rsatgan talabalarni tanlov asosida qabul qiladi. Talaba o'qishini tamomlash oldidan olti oylik amaliyot o'taydi va natijaga ko'ra bitiruv imtihoniga qo'yiladi.

Yangi Zelandiya, Vengriya, Ispaniya kabi davlatlar ta'lim sohasini boshqarishni markazlashtirish siyosatidan butkul voz kechganlar, ushbu davlatlarda davlatning faqatgina muvofiqlashtirish va nazorat qilish funksiyalari saqlanib qolgan; qolgan barcha vakolatlar mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilgan bo'lib, ular ta'lim tizimi sohasida bevosita tezkor boshqaruvni amalga oshiradilar hamda shu maqsadda tegishli qarorlar qabul qiladilar.

Xorijiy davlatlar oliy ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarining qiyosiy tahlili natijasida, yetakchi davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi, milliy, tarixiy an'analari asosida shakllangan jihatlarini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Primov. "Talabalarining malakaviy ilmiy amaliyotini o'tkazish" Toshkent, 2017 yil.

2. N. Rajabov. Pedagogik amaliyot va uni o'tkazish uchun tavsiyalar; Toshkent, 2019 yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., 2016.

4. Ubayxo'jayeva R. A. O'qituvchilarning kompetentlik ko'nikmalarini takomillashtirish. -T., 2017

5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).

6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков // Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.

7. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО

MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH

Hasanov Halim Ravshanovich

Buxoro davlat universiteti "Cholg'u ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

Barotboyev Ahmadjon Behzod o'g'li

12-1Cholg'u-21 talabasi

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy qadriyatlarni, milliy mentalitetimizni belgilaydigan maqom ashularimizni tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Maqom san'atini rivojlantirish va xalqimizning ko'p asrlik ijodiy an'analarni izchil davom ettirish mamlakatimizda kechayotgan keng ko'lamli ma'naviy-ruhiy tiklanish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir.

Maqom san'ati - yosh avlodning orzu-armonlari, iymonu-e'tiqodini, toza ruhi va xotirasini, ezgu niyatlarini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy an'analarini ifodalovchi tarbiyaviy vositadir. Ular milliy ma'naviy tarbiyada qudratli qurol, yoshlarni ma'naviy jipslikka birlashtiruvchi omil hisoblanib, o'zbek millatining ma'naviy dunyosini ifoda etadi.

Har bir millat, elat va etnik guruhning o'ziga xos udumlari, urf-odatlarini, an'ana va marosimlari bor. U avloddan avlodga, davrdan davrga meros bo'lib o'tadigan, muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan xulq-atvor usullaridandir. Bu boy merosimiz o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Hayot kishilarda ezgu niyat, maqsadga intilish, e'tiqod va barcha orzu-armonlarni, toza ruh va xotirani, jamiyatning yaxshi niyatlarini, qadimiy an'analarini o'zida jamuljam etgani uchun ham kishilar hayotiga singib ketadi.

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an'analari zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi.

O'zbek halq musiqasining ko'hna, nihoyatda boy va serjilo an'analari avvalo uning turfa yarim mahalliy uslublarida yorqin va teran o'z ifodasini topadi. Darhaqiqat, ayrim hollarda musiqiy mahalliy uslubning tilshunoslikdagi "sheva", "lahja", tushunchalari bilan qiyos qilinishi ham bejiz emas. Biroq, adabiyotshunoslikdan farqli o'laroq, jami mavjud "musiqiy sheva"larning mushtarak sifatleri o'z navbatda "umummilliy musiqiy uslub" singari yig'ma tushunchani yuzaga keltiradi. Ko'lami keng, serqatlam musiqa merosimizni tashkil etuvchi xilma-xil ko'hna na'munalari nota yozuviga tushirib, to'plab, ushbu yo'nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar bilan shug'ullangan bir qator mutaxassislar ish faoliyatida kuzatilgan uslubiy tafovutlarga o'z vaqtida alohida e'tibor berishgan ular bu haqida ilk bor qiziqarli ma'lumotlarni to'plab, teran ilmiy mushohadalar yuritganlar.

Xususan, e'tirof etilganki, Buxoro hamda Tojikistonda istiqomat qiluvchi tojiklar orasida, shunigdek, ayrim boshqa xorijiy mamlakatlarda azaldan tub o'zbek aholisi zich holda yashab kelayotgan yerlarda "musiqiy sheva"larning ko'rinishlari o'zgacha ekan. Kuzatilayotgan bunday ancha murakkab etnik, jug'rofiy, siyosiy ijtimoiy, tarixiy madaniy voqeylik to'laligicha qamrab olish, unga mukammal tarifu tavsiflar berish qiyin masala, albatta bularning orasida hozirga qadar ko'lami jihatidan bir muncha kengligi, tarixan qadimiyligi, xususiyatlari bo'yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to'rtta mahalliy uslub tavsif ila alohida-alohida ajratilgan bo'lib, o'zbek musiqashunosligida nisbatan atroflicha o'rganilgan.

Ularning har bir muayyan xudud nomi bilan, ya'ni Toshkent-Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Xorazm maqom uslublari, - deb yuritiladi.

Musiqada uslub tom ma'noda turli tuman, bir hisobda ayri-ayri tushunchalar doirasini vujudga keltirsada, bunda deyarli barcha tarkibiy vositalarining uzviy

bog'liqligini, tizimiyligini nazarda tutish darkor. Xuddi shu boisdan o'zbek xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishish, uni o'rganish hamda amaliy o'zlashtirish borasida uslubning o'rne va ahamiyati benihoya katta.

Qadim-qadim zamonlardan ona-zaminimiz o'zining boy ma'naviy merosi, yuksak madaniyati, urf-odat, marosim va an'analari bilan jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan. Bu o'lka xalqlarining buyuk siymolari dunyo ilm-fani va madaniyatining barcha sohalari rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996. -174 b.

2. O'zbek xalq musiqasi. Buxoro maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi YU .Rajabiy. III-tom. -T.: O'zbekiston SSR Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1959. -864 b.

3. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -T.: FAN, 1993. -56 b.

4. Fayzulina S.X. O'quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1978. -49 b.

TALABALARNI IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

M.N. Amonov

Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks yondashuv yuksalib borayotganligi, yoshlar kamolotining davlatimiz taraqqiyoti, uning kelajagi, bevosita barkamol shaxs shakllanishi bilan uzviy bog'liqligi va bo'lajak pedagog va psixologlar ongiga ma'naviy qadriyatga mansub manbalarni singdirish dolzarb masalalardandir. Xalq og'zaki ijodi durdonalarida ifodalangan axloqiy poklik, mehnatsevarlik, yurtparvarlik, shu aziz vatan tuprog'ining, uning har bir qarich yerining muqaddasligi haqidagi fikrlarning, laparlar mazmuni, san'atkorlar, xalq baxshilari ijrosidagi kuy va qo'shiqlarda, talabalarga tushunarli tilda, qiziqarli, o'ziga xos ijro usulida ifoda qilinishi tariximizning ildizlarini chuqurroq o'rganishda hamda ijtimoiy-pedagogik faolligini rivojlantirishda muhim manba rolini bajaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Birinchi marta "ijtimoiy pedagogika" iborasi 19-asrning ikkinchi yarmida "nemis o'qituvchilarining otasi" Adolf Disterveg tomonidan taklif qilingan. 20-asr boshlarida mashhur nemis faylasufi Pol Natorp xalq orasida madaniyat va ma'rifatni yoyish maqsadida jamiyatning ta'lim kuchlarini birlashtirish va ijtimoiy-pedagogik faoliyat g'oyasini ilgari surdi va bu faoliyatni ijtimoiy pedagogika deb atagan.

M.B. Qambarov. BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.....	105
F.F. Narzulloyeva. YOSHLARDA IJOD VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI.....	107
M.Yo.Umarova. XALQ QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O'RNI.....	109
M.Yo.Umarova. F.F. Raximova. TASAVVUF TA'LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI.....	133
B.B. Xodjiyev. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK NAZOKATI VA AXLOQINING IJODIY KO'RINISHI.....	118
A.T. Gulboyev. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKAVIY AMALIYOTLARNI O'TKAZISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	121
H.R. Hasanov, A.B. Barotboyev MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH.....	124
M.N. Amonov. TALABALARNI IJTIMOYIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	126
Q.F. Abdullayev. ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ПРЕДКОВ.....	128
4-ShO'BA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH MEXANIZIMLARI.....	132
M.O. Ochilova. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	132
G.G. Xabibova. TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV VA UNI LOYIHALASH.....	134
G.G. Xabibova, M.E. Mirzayeva. TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY ODATLARINI TARBIYALASH VAZIFALARI.....	139
M.N. Usmanova. ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDA IJTIMOYIY FOBIYA KO'RINISHLARINING NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	142
N.F. Mexmonova. YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	146
Yu.Z. Saidova. YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR.....	148
Sh.K.O'rinov. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI VA USULLARI.....	150
O.R. Ortiqov. MA'NAVIY ISLOHOTLAR OLIY TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TARBIYALASH MANBAI.....	154